TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BOSH PROKURATURASI HUZURIDAGI IQTISODIY JINOYATLARGA QARSHI KURASHISH DEPARTAMENT

# “RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI TO‘PLAMI

## FUQAROLAR PLASTIK KARTALARI KIBRXAVFSIZLIGINI TA’MINLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH” (MY CARD MOBIL ILOVASI)

# RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA SUN'IY INTELLEKT
## Ilmiy elektron jurnal

*Elektron nashr. 329 sahifa.*
*2026-yil, fevral.*

**Bosh muharrir:**
Mo‘minov Baxodir Boltaevich

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**
Nasimov Rashid

**Muharrir:**
Ulug‘ova Baxtiniso Norpulatovna

**Musahhih:**
Ulug‘ova Baxtiniso Norpulatovna

**Dizayner:**
Egamberdiyev Elyor

### Tahrir hay’ati:

1. Mo‘minov Bahodir (hay'at raisi)
2. Rashid Nasimov (hay'at raisi o‘rinbosari)
3. Marat Raxmatullayev (O‘zbekiston)
4. Muxammadjon Musaev (O‘zbekiston)
5. O‘tkir Xamdamov (O‘zbekiston)
6. Ali Xikmet (AQSh)
7. Dmitriy Rodionov (Rossiya)
8. Dilnoza Muhammadieva (O‘zbekiston)
9. Gayrat Ishanxodjaev (O‘zbekiston)
10. Nodir Rahimov (O‘zbekiston)
11. Akmal Abdusalomov (J. Koreya)
12. Xamza Eshankulov (O‘zbekiston)
13. Iles Xujayarov (O‘zbekiston)
14. Mexriddin Raximov (O‘zbekiston)
15. Murodjon Sultanov (O‘zbekiston)
16. Bekmurodov Ulug‘bek (O‘zbekiston)
17. Alisher Qobilov (O‘zbekiston)
18. Iroda Abdullaeva (O‘zbekiston)
19. Burova Ekaterina (Rossiya)
20. Xodiyeva Gulmira (O‘zbekiston)
21. Sultonboyeva Munira (O‘zbekiston)

### Jamoatchilik kengashi:

1. Gul Tokdemir (Turkiya)
2. Umid Axmedov (Daniya)
3. Marko Porta (Italiya)
4. Xristo Beloev (Bolgariya)
5. Muxriddin Muhitdinov (J.Koreya)
6. Boshtyan Brumen (Sloveniya)
7. Bibigul Koshoeva (Qirg‘iziston)
8. Olga Dzyabenko (Ispaniya)
9. Stefani Estlund (Lyuksemburg)
10. Sanjar Iskandavor (O‘zbekiston)
11. Aydos Sarsembayev (Qirg‘iziston)
12. Svetomir Vasilev (Bolgariya)
13. Pap Solt (Vengriya)

# MUNDARIJA

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MOLIYA SOHASINING INNOVATSION RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI ........................ 7
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, Mamadyarovna Go'zal Norboyevna**
MOLIYAVIY INKLYUZIYA VOSITALARI ORQALI CHEKKA HUDUDLARDA IQTISODIY FAOLLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARI..... 13
**Eshov Mansur Po'latovich**
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BOSH PROKURATURA HUZURIDAGI IQTISODIY JINOYATLARGA QARSHI KURASHISH DEPARTAMENTI FAOLIYATI VA UNING MAMLAKAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDAGI O'RNI. ........................................ 20
**Babadjanov Atxam Axmadjanovich**
ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫМИ ПРОЦЕССАМИ ДЛЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ ........................................ 26
**Ахмедов Самандар Сайфуллоевич**
IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA BOJXONA XIZMATINING FISKAL FAOLIYATIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI.. 32
**Farxodov Farrux Furqatovich, Toshpo'lotova E'zoza Latifjonovna**
SOLIQ MA'MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOT ULUSHINI QISQARTIRISH YO'LLARI ........... 38
**Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich**
IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA BOJXONA TO'LOVLARINI UNDIRISHNI RAQAMLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI ........................................ 43
**Pardayev To'lqin Nasirovich**
QARZ MUNOSABATLARINI RAQAMLASHTIRISH: IQTISODIY VA HUQUQIY MUNOSABATLARDAGI AHAMIYATI VA ISTIQBOLLARI ........................................ 47
**Quramboev Jamshid Rashid o'g'li**
EVALUATING THE EFFICIENCY OF COMMERCIAL BANKS IN UZBEKISTAN USING A MULTIPLE LINEAR REGRESSION MODEL........................................ 50
**Rakhimberdiev Kuvonchbek Bakhtiyorovich**
TASHQI SAVDO OPERATSIYALARIDA DEBITOR QARZDORLIKLARNI BOSHQARISHNING RAQAMLI MODELI VA RISK-MONITORING TIZIMI ........................................ 56
**Tashmuxamedov Dilmurod Mirabzalovich**
WAYS TO REDUCE THE RISK OF DIGITAL ATTACKS IN BANKING AND GOVERNMENT FINANCIAL SYSTEMS........................................ 62
**M.N. Umarova**
MOLIYALASHTIRISH MANBALARINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH KICHIK BIZNES IQTISODIY XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASH OMILI SIFATIDA........................................ 69
**Abduxakimov Eldor Djaloliddinovich**
TADBIRKORLIK VA KICHIK BIZNESDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING NAZARIY MASALALARI........................................ 76
**Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich**
MAHALLIY GILAM ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH VA IQTISODIY XAVFSIZLIKDA TAHDIDLARNI KAMAYTIRISH YO'LLARI.................... 81
**Arziyeva Sevinch Shomurot qizi**
TASHQI SAVDODA XATARLARNI KAMAYTIRISHDA SAVDONI MOLIYALASHTIRISH VOSITALARIDAN FOYDALANISH.................. 85
**Babadjanov Shuhrat Atxamovich**
KORXONALAR IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING KONTSEPTUAL VA METODOLOGIK ASOSLARI........................................ 92
**Jamoliddinov Jobirbek Bohodir o'g'li**
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING METODOLOGIK JIHATLARI........................ 97
**Karimov Alibek Valiyevich**
KICHIK BIZNES KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH OMILLARI NOMUTANOSIBLIGINING IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH VA UNI BARTARAF ETISH MEXANIZMI........................................102
**Kaypnazarova Gulshad Xojamuratovna**
КРИТЕРИИ ОЦЕНКИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В МАЛОМ БИЗНЕСЕ С ПОМОЩЬЮ SWOT-АНАЛИЗА.................108
**Набиев Бехзод Шавкатович**
TADBIRKORLIK VA KICHIK BIZNESNING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH HAMDA QO'LLAB-QUVVATLASHNING ILMIY-AMALIY JIHATLARI........................................114
**Tashmuxamedova Yayra Atxamovna, Teshayev Sayimbek**
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI MOLIYALASHTIRISH ORQALI AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH YO'LLARI..............................120
**Toxirova Mushtariybegim Yashnarjon qizi**
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH STRATEGIYASI ........................124

**Tursunov Bobir Ortikmirzayevich, Umarova Nargiza Xoldarovna**
РАЗРАБОТКА ЭФФЕКТИВНОЙ СТРАТЕГИИ ФИНАНСОВОЙ БЕЗОПАСНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ТЕКСТИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ....134
**Турсунов Бобир Ортикмирзаевич**
KIMYO SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH ....141
**Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li**
MAMLAKAT QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARI MOLIYAVIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILI ....147
**Umarova Nargiza Xoldarovna**
YENGIL SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI....154
**Sadriddinova Nigora**
RAQAMLI MOLIYAVIY INKLYUZIYA VOSITALARI ORQALI TUMANLAR O'RTASIDAGI IJTIMOIY FARQNI KAMAYTIRISH MODELI.... 162
**Xakimov Ziyodulla Ahmadovich, Tursunov Bobir Ortikmirzayevich, Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li**
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMINI QISQARTIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING O'RNI....170
**Jaloliddinov Anvar Jaloliddin o'g'li**
YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMINI QISQARTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH: O'ZBEKISTON BOJXONA ORGANLARI TAJRIBASI ....176
**Makkamov Z.X., Soatov S.S.**
RAQAMLI PLATFORMALAR ORQALI XALQARO SAVDODA IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARI....182
**Muxtorov Boburmirzo Bahodir o'g'li**
RAQAMLI TO'LOV TIZIMLARI VA ELEKTRON HISOB-KITOBLARNING YASHIRIN IQTISODIYOT ULUSHINI KAMAYTIRISH MEXANIZMLARI....188
**Norsafarov Bunyodshoh Muhiddinzoda**
PROSPECTIVE INDICATORS FOR MANAGING THE LEGALIZATION OF THE INFORMAL SECTOR AND INFORMAL EMPLOYMENT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN ....192
**Qoraboyev Nuriddin Pardaboy o'g'li**
YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMINI QISQARTIRISHDA TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN AHOLIGA KO'RSATILAYOTGAN BANK XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING RAQAMLI YO'NALISHLARI....196
**To'patillayeva Gulnoza Sirojiddin qizi**
BIG DATA TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA SOLIQ RISKLARINI ANIQLASH VA YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH IMKONIYATLARI....201
**Yakubova Nargiza Tursunbayevna, Maxmudov Jasurbek Ulug'bek o'g'li**
SOLIQLAR YOKI BOSHQA MAJBURIY TO'LOVLARNI TO'LASHDAN BO'YIN TOVLASH JINOYATI VA UNING MAMLAKAT IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI....208
**Axmedov Zafar Bozorboyevich**
DAVLATLARNING IQTISODIY JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHDAGI XALQARO HAMKORLIGI: XALQARO TASHKILOTLAR, FATF STANDARTLARI VA AMALIY MEXANIZMLAR....213
**Tashmuxamedova Yayra Atxamovna**
IQTISODIY JINOYATLARNI ANIQLASH VA ULARGA QARSHI KURASHISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYALARNING O'RNI ..221
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, Tursunov Bobir Ortiqmirzayevich, Tashmuxamedova Yayra Atxamovna**
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA AHOLINING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI ....226
**Azlarova Mushtariybegim Abror qizi**
RAQAMLI TO'LOV TIZIMLARI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA DAVLAT INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARINING ROLI....232
**Kurbonbekova Mohichehra Turobjonovna, Azlarova Aziza Axrorovna**
MOLIYAVIY SAVODXONLIK TUSHUNCHASI VA UNING IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI....238
**Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi, Sattorova Nasiba G'anijon qizi**
AHOLI MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH BO'YICHA XORIJIY ILMIY YONDASHUVLAR TAHLILI ....244
**Kurbonbekova Mohichehra Turobjonovna, Muzaffarova Dilbar Mamalatif qizi**
MAHALLIY OLIMLAR TADQIQOTLARIDA MOLIYAVIY SAVODXONLIK VA BANK XIZMATLARI MASALALARI ....251
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi**
BANK PLASTIK KARTALARI VA SHAXSIY HISOB RAQAMLARINI NAZORAT QILISH TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI....258
**Azlarova Aziza Axraroyna, Sattorova Nasiba G'anijon qizi**
AUTENTIFIKATSIYA SXEMALARINI TAHLIL QILISH VA ULARNING AFZALLIKLARI HAMDA KAMCHILIKLARI....265

**Ahmedova Nilufar Shukratovna, Kurbonbekova Mohichehra Turobjonovna**
PLASTIK KARTALAR XAVFSIZLIGIGA TA’SIR KO‘RSATUVCHI MAVJUD KIBERXAVFSIZLIK TAHDIDLARI TAHLILI ....272

**Kuziyeva Nargiza Ramazanovna, Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi**
ILG‘OR XORIJIY MAMLAKATLARDA PLASTIK KARTALAR VA RAQAMLI TO‘LOVLAR XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH TAJRIBALARI: FINTECH PLATFORMALARINING QIYOSIY TAHLILI VA MYCARD MOBIL ILOVASINI TAKOMILLASHTIRISH BO‘YICHA TAVSIYALAR ....278

**Kurbonbekova Mohichehra Turobjonovna, Mashrapova Sabina Turobjonovna**
AHOLI MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA IJTIMOIY TARMOQLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA INDIKATORLARI ....285

**Eshpulatova Muazzam Barnoyevna**
AHOLINING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI ....292

**Eshpulatova Muazzam Barnoyevna**
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОЦЕНКИ ЦИФРОВОЙ ЗРЕЛОСТИ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЙ ....298

**Назарова Гулчехра Нурмухамбетовна**
ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ ЦИФРОВОЙ ЗРЕЛОСТИ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ НА КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЙ УЗБЕКИСТАНА....305

**Назарова Гулчехра Нурмухамбетовна**
MOLIYAVIY INKLUZIYADA KIBERXAVFSIZLIKNING O‘RNI VA UNING BARQAROR IQTISODIY O‘SISHGA TA’SIRI: BANK MOBIL ILOVALARI MISOLIDA....313

**Saydamatova Muxlisabonu Rasuljon qizi**
MOLIYAVIY XIZMATLARDAN FOYDALANISHDA SOLIQ SAVODXONLIGINING O‘RNI ....318

**Irgashev Anvar Farxodovich**
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ALTERNATIV KREDIT SKORING TIZIMLARINING AHAMIYATI....322

**Lazizbek Ravshanov Baxtiyor o‘g‘li**
THE ECONOMIC ESSENCE OF LABOR AND ITS INTERPRETATION IN THE CONTEXT OF INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS....325

**Nomozov Ilhomjon Ziyadullah ugli**
O‘ZBEKISTON KORXONALARIDA BIZNES JARAYONLARINI MODELLASHTIRISH AMALIYOTINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI ....328

**Qarshiyeva Moxinur Olim qizi**
THE ROLE OF RITUALS IN ATTRACTING TOURISTS....331

**Freshta Qayoumi**
O‘ZBEKISTONDA REKREATSION TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-AMALIY O‘ZIGA XOS JIHATLARI....333

**Po‘latova Mavluda Sanjar qizi**
O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA TARMOQLAR KESIMIDA INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI BAHOLASH....336

**Otajonova Charosxon Polvonquli qizi**
MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIDAN O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI AMALIYOTIDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI VA RIVOJLANISH MUAMMOLARI ....340

**Valijonov X.A.**
IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA KICHIK SANOAT ZONALARIDAGI KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGI MASALALARI ....344

**Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich**
KIMYO SANOATI KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA UNI OSHIRISHNING MAKRO DARAJADAGI TAHLILI....347

**Suyarov Shahzod Salim o‘g‘li**
INVESTITSIYON MUHITNI SAMARALI BOSHQARISHDA INNOVATSION OMIL TA’SIRCHANLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI....350

**To‘rayev Jasurali To‘rayevich**
SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING IQTISODIY MEXANIZMI: DH-ROI-EM MODELI ASOSIDA ....353

**Omonov Olim Murodullaevich**

РИСКИ ЛИКВИДНОСТИ ПРИ ОБЕСПЕЧЕНИИ ТРАНСГРАНИЧНЫХ ДЕНЕЖНЫХ ПЕРЕВОДОВ....355
**Садыков Азиз Миршарапович**

THE ROLE OF TECHNOLOGY IN RESTAURANTS AND ENHANCING OFFERINGS FOR TOURISTS....358
**Freshta Qayoumi**

INVESTITSIYA FAOLLIGI MINTAQAVIY IQTISODIY XAVFSIZLIK OMILI SIFATIDA....360
**Islamov Anvar Ashirqulovi**

ASSESSING DIGITAL MATURITY IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS: AN INTEGRATED FRAMEWORK APPROACH....363
**Berdiyev Temurbek Makhmudullo ugli**

SANOAT TARMOG'INI IQTISODIY RIVOJLANTIRISH VA UNDAN SAMARALI FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI....363
**Ne'matov Shoxruxbek Ma'murjon o'g'li**

CHANGES IN TEXTILE INDUSTRY OUTPUT AND THE FACTORS INFLUENCING IT....367
**Xushvaqtov Shuhrat Abduraufovich**

TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY HISOBOTI AUDITINING NAZARIYMETODOLOGIK ASOSLARI....371
**Ibragimov Nodirbek Baxodir o'g'li**

O'ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARI AUDITINING HUQUQIY-ME'YORIY ASOSLARI VA HOZIRGI HOLATI....373
**Ibragimov Nodirbek Baxodir o'g'li**

KAM XARAJATLI TASHUVCHILAR MODELINING MOHIYATI....376
**Suyunov Alisher**

O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK MEHMONXONALAR FAOLIYATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA HORIJIY TAJRIBANI QO'LLANILISHI....379
**Abidova Dilfuza Igamberdievna**

ЦИФРОВИЗАЦИЯ В ТУРИЗМЕ КАК ФАКТОР ТРАНСФОРМАЦИИ СПРОСА И ПРЕДЛОЖЕНИЯ....382
**Абидова Дилфуза Игамбердиевна**

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH....385
**M. M. Abdurahmanova**

ERKIN IQTISODIY ZONA ISHTIROKCHILARIGA BERILGAN SOLIQ IMTIYOZLARI....389
**Davlayev G'olib Ashurovich**

KIMYO SANOATI KORXONALARIDA YASHIL TRANSFORMATSIYA VA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHNING ILMIY-AMALIY JIHATLARI....392
**Xaydarova Kamola Axinjanovna**

ERKIN IQTISODIY ZONALARDA FAOLIYAT YURITUVCHI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI ZAMONAVIY INFRATUZILMA BILAN TA'MINLASHNING HUQUQIY VA IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH....395
**Davlayev G'olib Ashurovich**

O'ZBEKISTONDA QURILISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA INSTITUTSIONAL ISLOHOTLAR....398
**Asadova Maftuna Sa'dullayevna**

YASHIL IQTISODIYOTNI MOLIYALASHTIRISH ORQALI IQTISODIYOT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI....401
**Xolikov S.X.**

YASHIL IQTISODIYOTNI MOLIYALASHTIRISH ORQALI IQTISODIYOT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI....404
**S.X. Xolikov**

DAROMADLAR VA XARAJATLARNI BOSHQARISH KONSEPSIYALARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR....408
**Aymuxammedova Amina Kakajanovna**

QISHLOQ XO'JALIGI AGROTEXNOLOGIYALARINI MOLIYALASHTIRISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH....411
**Jollibekov Vladimir Baxtiyarovich**

TOWARDS A GREEN ECONOMY IN UZBEKISTAN: REGIONAL DEVELOPMENT AND ENVIRONMENTAL CHALLENGES ........ 413
**Khakimdjanova Surayyo Khabibullayevna**

TOWARD RESPONSIBLE HYDROCARBON DEVELOPMENT: SUSTAINABILITY AND ENVIRONMENTAL ACCOUNTABILITY........ 417
**Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol kizi**

MINTAQAVIY IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI ........ 420
**Islamov Anvar Ashirqulovich**

O'ZBEKISTON SANOAT TARMOG'INING HOZIRGI HOLATI VA IQTISODIY KO'RSATKICHLARI DINAMIKASI........ 423
**Ne'matov Shoxruxbek Ma'murjon o'g'li**

TIJORAT BANKLARINING ONLAYN XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XALQARO TAJRIBASI ........ 427
**Jumaniyozova M. Y.**

HAVO TRANSPORTIDA YUK TASHISH BOZORIDA KICHIK TADBIRKORLIKNING TASHKILIY-HUQUQIY SHAKLLARI: GSA/ GSSA AGENTLIK HAMDA EKSPEDITORLIK MODELLARI TAHLILI ........ 430
**Anvarova Dilfuza Abdusattor qizi**

RAQAMLI PLATFORMALAR VA IJTIMOIY MEDIA TARMOQLARINING TURIZM SOHASIDA ISTE'MOLCHI XATTIHARAKATLARIGA TA'SIR MEXANIZMLARI ........ 435
**Jumayev Bobomurod Nurmaxmat o'g'li**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ELEKTRON XIZMATLARNING ISTIQBOLLARI VA TAHLILI ........ 438
**Otaboyev Nodirbek Oybek o'g'li**

QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA EKOLOGIK AKTIVLAR VA INVESTITSIYALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 441
**Mirzaev Komiljon Abdullajonovich**

BIOLOGIK AKTIVLARNI HAQQONIY QIYMATDA BAHOLASHNING KO'P OMILLI MODELI VA ULARNI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH MASALALARI ........ 444
**Axmetova S. S.**

YASHIRIN IQTISODIYOTNING VUJUDGA KELISH OMILLARI VA SABABLARINING NAZARIY ASOSLARI........ 448
**Raxmonov Azizjon Sadullayevich**

# YASHIRIN IQTISODIYOTNING VUJUDGA KELISH OMILLARI VA SABABLARINING NAZARIY ASOSLARI

**Raxmonov Azizjon Sadullayevich**
**Toshkent Kimyo xalqaro universiteti**
**"Xalqaro iqtisodiyot" kafedrasi mudiri**
**PhD, dotsent v.b.**
**E-mail: azizrakhmonov1913@gmail.com**
**ORCID: https://orcid.org/0000-0001-6734-9504**

**Annotatsiya.** Maqolada yashirin iqtisodiyotning vujudga kelish omillari va sabablarining nazariy asoslari tahlil qilingan. Xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari umumlashtirilib, yashirin iqtisodiyotning shakllanishiga ta'sir etuvchi iqtisodiy, institutsional, huquqiy, ma'muriy, ijtimoiy va demografik omillar tizimlashtirilgan. Shuningdek, turli mamlakatlar tajribasi asosida mazkur omillarning o'zaro bog'liqligi, soliq siyosati hamda institutsional muhitning ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari yashirin iqtisodiyotni qisqartirishda soliq siyosatini takomillashtirish, davlat institutlari samaradorligini oshirish va biznes muhitini yaxshilashga qaratilgan kompleks yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** yashirin iqtisodiyot, norasmiy iqtisodiyot, soliq siyosati, institutsional omillar, soliq yuki, davlat institutlari, korrupsiya, soliq madaniyati, biznes muhiti, iqtisodiy rivojlanish.

**Abstract.** This article examines the theoretical foundations of the factors and causes contributing to the emergence of the shadow economy. The scientific views of foreign and domestic scholars are summarized, and the economic, institutional, legal, administrative, social, and demographic factors affecting the formation of the shadow economy are systematized. Based on the experience of various countries, the interrelationship among these factors and the importance of tax policy and the institutional environment are substantiated. The findings indicate the need for a comprehensive approach aimed at improving tax policy, enhancing the efficiency of public institutions, and creating a more favorable business environment in order to reduce the shadow economy.

**Keywords:** shadow economy, informal economy, tax policy, institutional factors, tax burden, public institutions, corruption, tax culture, business environment, economic development.

**Аннотация.** В статье исследованы теоретические основы факторов и причин возникновения теневой экономики. Обобщены научные взгляды зарубежных и отечественных ученых, а также систематизированы экономические, институциональные, правовые, административные, социальные и демографические факторы, влияющие на формирование теневой экономики. На основе опыта различных стран обоснованы взаимосвязь данных факторов, а также значение налоговой политики и институциональной среды. Результаты исследования свидетельствуют о необходимости комплексного подхода к сокращению теневой экономики, предусматривающего совершенствование налоговой политики, повышение эффективности государственных институтов и улучшение деловой среды.

**Ключевые слова:** теневая экономика, неформальная экономика, налоговая политика, институциональные факторы, налоговая нагрузка, государственные институты, коррупция, налоговая культура, деловая среда, экономическое развитие.

## KIRISH

Har qanday mamlakatdagi yashirin iqtisodiyot (YaI) darajasini qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda, dastavval, uning miqyosi hamda unga ta'sir etuvchi asosiy iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va boshqa omillarni aniqlash zarur.

Yashirin iqtisodiyotga ta'sir etuvchi omillarni o'rganishda iqtisodiy agentlarning motivlarini hisobga olish muhim, chunki ular faoliyatni yashirishga qaratilgan xatti-harakatlarning shakllanishini tushuntirishga yordam beradi. Yashirin iqtisodiyot ishtirokchilari "ratsional" iqtisodiy subyektlar bo'lib, ularning qarorlari faoliyatni norasmiy tarzda yuritishdan olinadigan foyda va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xarajatlarni taqqoslashga asoslanadi. Boshqacha aytganda, iqtisodiy subyektlar norasmiy sektorda faoliyat yuritishni tanlashlari uchun muayyan iqtisodiy rag'batga ega bo'lishlari kerak. Ya'ni kutilayotgan foyda faoliyatning aniqlanishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xarajatlardan yuqori bo'lishi kerak.

Tadqiqotlarda yashirin iqtisodiyotning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar haqidagi ilmiy qarashlarni shartli ravishda ikki asosiy yondashuvga ajratish mumkin. Birinchi yondashuvda soliq va majburiy ijtimoiy to'lovlar yuki asosiy omil sifatida baholansa, ikkinchi yondashuvda iqtisodiy, huquqiy va siyosiy institutlarning sifati, shuningdek, korrupsiya bilan bog'liq xavflar muhim omillar sifatida ko'rsatiladi.

Xuddi shu nuqtayi nazardan, V. Tanzi rasmiy iqtisodiyotdan "chiqish" sabablarini davlat tomonidan belgilangan tartibga solish talablariga iqtisodiy subyektlarning moslashuv reaksiyasi sifatida izohlaydi. Biroq norasmiy iqtisodiyotni tanlash orqali davlat xizmatlarining bir qismidan, xususan, huquqiy himoyadan, sug'urtadan, rasmiy moliyaviy sektorga kirish imkoniyatidan, nafaqa to'lovlari bo'yicha davlat kafolatlaridan foydalanish imkoniyatidan mahrum bo'lishlari mumkinligini ham ta'kidlaydi. Bundan tashqari, norasmiy sektorda iste'molchilarni firibgarlikdan himoya qilish, ularning sog'lig'i va xavfsizligini ta'minlash hamda iste'molchi huquqlarini kafolatlash imkoniyatlari cheklangan bo'lishi mumkin.

Yashirin iqtisodiyot rasmiy va norasmiy sektor ishtirokchilari uchun muayyan salbiy oqibatlarni yuzaga keltirishiga qaramay, uning omillari makro va mikro darajalarda keng o'rganilgan.

Xususan, mikro darajada tadqiqotlarni amalga oshirgan F. Kouyell hamda B. Culiberg va D. Bajde kabi tadqiqotchilar shaxslarning daromadlarini yashirishdagi opportunistik xatti-harakatlarini o'rganishda axloqiy, ijtimoiy va psixologik omillarning muhim ekanligini tasdiqlaydilar. J. Round va S. Uilliams o'z tadqiqotlarida ijtimoiy munosabatlarni hisobga olgan holda voqelikni boshqa tomondan yoritib, norasmiy bozor ishtirokchilarini ijtimoiy aloqalardan foydalangan holda daromadlarni maksimallashtiradigan ratsional iqtisodiy ishtirokchilar emas, balki ijtimoiy ishtirokchilar sifatida tasvirlaydilar. Ijtimoiy institutlarga qo'shimcha ravishda, B. Culiberg va D. Bajde turli demografik ko'rsatkichlarning ta'sirini ham hisobga olish zarurligini ko'rsatib o'tgan.

Ayrim tadqiqotlarda iqtisodiy agentlarning xulq-atvor jihatlariga e'tibor qaratilgan bo'lsa, boshqa tadqiqotlarda yashirin iqtisodiyot rivojlanishiga ta'sir etuvchi makrodarajadagi omillar kengroq o'rganilgan. Jumladan, tarkibiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, moliyaviy va institutsional sharoitlarning mazkur jarayonga ta'siri qayd etilgan. Bunday omillar qatoriga korrupsiya bilan bog'liq xavflar, qonun ustuvorligini ta'minlash darajasi, demokratik institutlarning rivojlanganligi, davlat boshqaruvi samaradorligi, tartibga solish sifati, ijtimoiy xizmatlar sifati, mehnat bozorini tartibga solish, moliyaviy rivojlanish, fiskal resurslarni taqsimlash, infratuzilma, turmush darajasi va daromadlar taqsimotidagi tafovutlar kiradi. Ushbu omillar iqtisodiy subyektlarning faoliyat shaklini tanlashiga va rasmiy yoki norasmiy sektorda ishtirok etish qarorlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Davlat siyosati va institutsional mexanizmlardagi ayrim kamchiliklar aholining muayyan guruhlari uchun davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini cheklashi yoki qo'shimcha xarajatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Rasmiy sektordagi mavjud cheklovlar hamda iqtisodiy imkoniyatlarning notekis taqsimlanishi davlat institutlariga bo'lgan ishonch darajasiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday sharoit ayrim iqtisodiy subyektlarning norasmiy sektorda faoliyat yuritishni tanlash ehtimolini oshiradi.

Institutsional nuqtayi nazardan, ayrim mamlakatlarda qonunchilikning tez-tez o'zgarishi, davlat institutlari faoliyati samaradorligining yetarli emasligi hamda korrupsiya bilan bog'liq xavflar yashirin iqtisodiyotning kengayishiga ta'sir qiluvchi omillar sifatida baholanadi. Ma'muriy jihatdan byurokratik tartib-taomillar, litsenziya va ruxsatnomalarni olishdagi murakkabliklar hamda nazorat mexanizmlarining yetarli darajada takomillashmaganligi rasmiy iqtisodiy faoliyat xarajatlarini oshirishi va norasmiy sektorda faoliyat yuritishga iqtisodiy rag'bat yaratishi mumkin.

Mahalliy olimlar va tadqiqotchilar tomonidan ham yashirin iqtisodiyotni keltirib chiqaruvchi va uning kengayishiga sabab bo'luvchi omillar keng tadqiq etilgan bo'lib, ular muammoning O'zbekiston uchun xos xususiyatlariga katta e'tibor qaratishgan. Xususan, H. Abulqosimov omillarni olti guruhga bo'lib, ularni quyidagicha ta'riflaydi:

1-jadval
Yashirin iqtisodiyotning kelib chiqishiga sabab bo'luvchi omillar[1]

| Omillar guruhi | Umumlashtirilgan mazmun |
|---|---|
| Antropologik | Inson tabiatining qarama-qarshiligi, shaxsiy manfaatning ustunligi |
| Iqtisodiy | Soliq siyosatini takomillashtirish zarurati, bozor nomutanosibligi, aholi xarid qobiliyati pastligi, tadbirkorlik xarajatlarining yuqoriligi |
| Huquqiy | Qonunchilik va iqtisodiy huquqbuzarliklarning oldini olish mexanizmlarini takomillashtirish zarurati |
| Ijtimoiy-siyosiy | Davlat institutlariga bo'lgan ishonch darajasining yetarli emasligi, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va iqtisodiy muammolarning hal etilish darajasi |
| Ijtimoiy | Ishsizlik, aholi tabaqalanishi, kam ta'minlangan qatlamlar va mehnat munosabatlari muammolari |
| Ma'muriy | Davlat boshqaruvi tizimidagi takomillashtirishni talab qiluvchi jihatlar, murakkab tartib-taomillar va tadbirkorlik faoliyatiga tushadigan ma'muriy yuk |

Shuningdek, T. Rasulov va Sh. Egamberdiyevlar yashirin iqtisodiyot obyektiv va subyektiv omillar sababli yuzaga kelishini ko'rsatgan.

Obyektiv sabablar sifatida davlatning iqtisodiyotni tartibga solish darajasi, qonunchilik bazasini takomillashtirish zarurati, ma'muriy tartib-taomillarning murakkabligi, iqtisodiy faoliyatni hisobga olish metodologiyasining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi, biznes muhitidagi ayrim cheklovlar hamda soliq yukining yuqoriligi qayd etilgan.

Subyektiv sabablar esa aholining iqtisodiy ongi va qarashlari, kamroq xarajat evaziga ko'proq daromad olishga intilish, soliq majburiyatlarini bajarishdan chetlanish, faoliyatni norasmiy shaklda yuritishga moyillik, soliq madaniyatining yetarli darajada shakllanmaganligi hamda korrupsion xatti-harakatlarga nisbatan murosali munosabat kabi omillar bilan izohlanadi.

M. Mirzakarimova va M. Olimjonova yashirin iqtisodiyotning ajralmas qismi bo'lgan norasmiy bandlik masalasini o'rganib, uni keltirib chiqaruvchi omillar sifatida quyidagilarni keltirib o'tganlar:

2-jadval
Norasmiy bandlikka sabab bo'luvchi omillar

| Sabab yoki omil | Tavsifi |
|---|---|
| Rasmiylashtirilmagan mehnat munosabatlari | Ish o'rinlari rasmiy ro'yxatga olinmaydi, mehnat shartnomalari tuzilmaydi, soliq va ijtimoiy badallarni to'lashdan chetlanish holatlari. |
| Rasmiy ish o'rinlarining yetarli emasligi | Qishloq joylarda va iqtisodiy rivojlanish darajasi nisbatan past hududlarda rasmiy ish o'rinlari cheklangan bo'lib, aholining rasmiy sektorda band bo'lish imkoniyatlari kamayishi mumkin. |
| Ijtimoiy-demografik omillar | Yoshlar, nafaqaxo'rlar, uy bekalari, ta'lim darajasi nisbatan past bo'lgan shaxslar norasmiy sektorga ko'proq jalb qilinadi. |
| Qo'shimcha daromadga bo'lgan ehtiyoj | Asosiy ish haqi yoki pensiya yetarli emasligi sababli aholi norasmiy ish bilan shug'ullanadi. |
| Mehnat migratsiyasi | Ichki va tashqi mehnat migratsiyasi norasmiy mehnat munosabatlarini kengaytiradi. |
| Ma'muriy va institutsional omillar | Ishga joylashish va tadbirkorlik faoliyatini rasmiylashtirishdagi murakkab tartib-taomillar. |
| Ixtiyoriy tanlangan bandlik | Fuqarolarning mustaqil daromad topish, kichik biznes bilan shug'ullanish va shaxsiy tashabbuskorlikka moyilligi. |

Demak, yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishda ma'muriy choralar bilan cheklanib qolmasdan, balki iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, institutsional islohotlarni chuqurlashtirish va davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishni qamrab olgan kompleks yondashuv talab qilinadi.

Yashirin iqtisodiyotning yuqorida keltirilgan omillarini tahlil qilib, uning rivojlanishiga sabab bo'luvchi omillarni, asosan, ikki katta guruhga ajratish mumkin. Yashirin iqtisodiyotning yuqorida keltirilgan omillarini tahlil qilish asosida ularni ikki katta guruhga, ya'ni soliq bilan bog'liq omillar hamda soliqdan tashqari ijtimoiy, iqtisodiy, demografik va boshqa omillarga ajratish mumkin.

1 Abulqosimov, H. P. (2020). Yashirin iqtisodiyotning mohiyati, sabablari va oqibatlari, unga qarshi kurash yo'llari. *Iqtisod va moliya / Ekonomika i finansy*, 2(134), 3–10.

Yuqorida keltirilgan omillarning ta'sir darajasi yuzasidan o'tkazilgan miqdoriy (empirik) va sifat tahlillari natijasida yashirin iqtisodiyotning rivojlanishiga sabab bo'ladigan omillar ichida soliq bilan bog'liq omillar o'rtacha hisobda 35–50 foizni tashkil etishi aniqlangan (3-jadvalga qarang).

3-jadval
Yashirin iqtisodiyotning rivojlanishiga sabab bo'luvchi asosiy omillar ulushi[2]

| Omillar | Sifat tahlili 12 ta tadqiqot natijasi (%) | Miqdoriy tahlil 22 ta tadqiqot natijasi (%) |
|---|---|---|
| Soliq va majburiy ijtimoiy himoya to'lovlari yuki | 35–38 | 45–52 |
| Davlat institutlari sifati | 10–12 | 12-17 |
| Mehnat bozorining tartibga solinishi | 7-9 | 7-9 |
| Pul o'tkazmalarini nazorat qilish | 5-7 | 7-9 |
| Davlat xizmatlari sifati | 5-7 | 7-9 |
| Soliq madaniyati | 22-25 | - |
| Barcha omillarning ta'siri | 84-98 | 78-96 |

Jadvaldan ko'rish mumkinki, soliq va ijtimoiy sug'urta badallari, soliq madaniyati hamda davlat tomonidan tartibga solishning intensivligi yashirin iqtisodiyot rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar hisoblanadi. Shuni ta'kidlash joizki, bu omillar bir-biri bilan o'zaro aloqador bo'lib, ular bir-birini kuchaytirishi mumkin. Xususan, yashirin iqtisodiyot darajasining yuqoriligi soliq tushumlarini kamaytirib, davlat xizmatlari va davlat muassasalari sifatini pasaytirishi mumkin. Bu, o'z navbatida, soliq stavkalarining oshishiga va soliq madaniyatining pasayishiga olib kelishi mumkin.

4-jadval
Yaqin xorijiy mamlakatlarda yashirin iqtisodiyot (YaI) omillarining tizimli tahlili[3]

| Davlat | **Yalni vujudga keltiruvchi omillar** | **Yalning kengayishiga sabab bo'luvchi omillar** | **Yal doirasida faoliyat yuritishni rag'batlantiruvchi omillar** | **Mualliflar** |
|---|---|---|---|---|
| Rossiya | - soliq yukining yuqoriligi va notekis taqsimoti<br>- iqtisodiy inqirozlar va makroiqtisodiy beqarorlik<br>- kambag'allik va aholi daromadlaridagi tafovutlar | - qonunchilikdagi ziddiyatlar va beqarorlik<br>- samaradorligi cheklangan institutlar (bank, sud, nazorat organlari)<br>- korrupsiya bilan bog'liq institutsional xavflarning mavjudligi | - byurokratik to'siqlar<br>- ma'muriy xarajatlarning yuqoriligi<br>- davlat hisoboti va statistik ma'lumotlarning cheklanganligi<br>- nazorat tizimidagi bo'shliqlar<br>- soliq tizimining murakkabligi | P. Danko,<br>A. Manayenkov,<br>Ye. Perov,<br>Ye. Zavalishena,<br>Ye. Xarlamova,<br>N. Dergachev |

---

2 Schneider F., Williams C.C. The Shadow Economy. The Institute of Economic Affairs, London 2013. p. 44.

3 Данко П. Н. Теневая экономика в предпринимательских структурах. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Санкт-Петербургская академия управления и экономики. Санкт-Петербург - 2007. ст. 30

Манаенков А. М. Институционалные основы обеспечения экономической безопасности и противодействия теневой экономике. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Московский государственный социальный университет. Москва - 2004. ст. 24

Перов, Е. В. Теневая экономика как признак конфликтогенности экономической системы общества. Вестник ВГУ. Серия: Экономика и управление, (3), 2016. ст. 10–17.

Дергачев Н. В. Основные причины возникновения теневой экономики в России. Administrative Consulting, 4(2), 2018. ст. 10-14.

Завалишена, Е. А. Теневая экономика: причины возникновения, основные угрозы и проявления, меры противодействия. Administrative Consulting, 4(2), 2018. ст. 149–154.

Харламова Е. В. Теневая экономика в России: причины и формы её проявления. Теневая экономика, Т. 2, № 1, 2018. ст. 1721. DOI: 10.18334/tek.1.4.37633

Воробьев Е. Теневая экономка в условиях системного кризиса / Е. Воробьев // Экономика Украины. – 2008. – № 8. – С. 7–14

Коваленко В. В., & Шелудько, С. А. Теневая экономика и ее влияние на экономический рост в Украине. Экономика и финансы, 1(149), 2022. ст. 2-11

Коваленко В. В., & Шелудько, С. А. Теневая экономика и ее влияние на экономический рост в Украине. Экономика и финансы, 1(149), 2022. ст. 2-11

Джабиев Р.  Теневая экономика и коррупция в Азербайджане. Мировая экономика и международные отношения, (7), 2012. ст. 84–91.

Гезалов А. А. Теневая экономика в Азербайджанской Республике: понятие и современное состояние данного феномена. State Service and Personnel, (1), 2024. ст. 56–59.

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Ukraina | - iqtisodiy inqirozlar va siyosiy beqarorlik<br>- aholi daromadlarining pastligi<br>- ishsizlik<br>- soliq yukining yuqoriligi | - davlat boshqaruvi va institutlari samaradorligining yetarli darajada emasligi<br>- korrupsiya bilan bog'liq institutsional xavflarning mavjudligi<br>- davlat hokimiyati va soliq nazoratiga ishonchning pastligi | - soliq va budjet siyosatining nomukammalligi<br>- sud-huquq tizimi samaradorligini oshirish zarurati<br>- nazorat mexanizmlarining yetarli darajada samarali emasligi | Ye. Vorobev, V. Kovalenko va S. Sheludko |
| Ozarbayjon | - iqtisodiy inqiroz va retsessiya sharoiti<br>- aholi daromadlarining pasayishi va qashshoqlik darajasining yuqoriligi<br>- ishsizlik<br>- soliq yukining notekis taqsimoti | - davlat nazorati institutlarining institutsional salohiyati yetarli emasligi<br>- qonunchilik nomukammal va ziddiyatli<br>- korrupsiya xavfining ayrim sohalarda barqaror saqlanib qolishi;<br>- bozor institutlarining to'liq shakllanmaganligi | - soliq va bojxona tizimida ortiqcha byurokratiya<br>- litsenziya va ruxsatnomalar olishda murakkabliklar<br>- nazorat tartib-taomillarining tadbirkorlik faoliyatiga yuqori ma'muriy yuk yuklashi va norasmiy to'lovlar | R. Djabiyev, A. Gezalov |
| Qozog'iston | - past iqtisodiy rivojlanish<br>- ishsizlik darajasining yuqoriligi<br>- kam daromadli aholi qatlamining ulushi yuqoriligi | - qonunchilikning murakkabligi va beqarorligi<br>- davlat nazoratining samarasizligi<br>- korrupsiya bilan bog'liq institutsional xavflarning mavjudligi | - byurokratik tartib-taomillar<br>- litsenziya va ruxsatnoma olishda murakkablik<br>- davlat xizmatlari infratuzilmasining pastligi | K. Shapenova[4], D. Bayzakov, A. Burlivayeva, G. Karagusova |
| Qirg'iziston | - ishsizlik va aholi daromadlarining pastligi<br>- kambag'allik va iqtisodiy transformatsiya inqirozi<br>- soliq yukining yuqoriligi | - davlat va bozor institutlari barqarorligining yetarli emasligi<br>- korrupsiya bilan bog'liq institutsional xavflarning mavjudligi<br>- bozor institutlarining to'liq shakllanmaganligi<br>- qonun ustuvorligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish zarurati | - byurokratik tartib-taomillar<br>- tadbirkorlikni ro'yxatdan o'tkazish va litsenziyalashdagi murakkabliklar<br>- nazorat mexanizmlarining yetarli darajada samarali emasligi va jazo mexanizmlari | V. Savin va Sh. Gapurbayeva, S. Cholbayeva va Z. Boziyeva, J. Sadyraliyev va S. Umetov |
| Tojikiston | ish o'rinlari yetishmasligi va aholi soning o'sishi bilan ish o'rinlariga bo'lgan ehtiyoj o'rtasidagi nomuvofiqlik<br>- yuqori soliq yuki va iqtisodiy nobarqarorlik | - qonun ustuvorligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish zarurati<br>- davlat organlari va nazorat tizimlarida korrupsiya bilan bog'liq xavflar<br>- davlat sektorining ulushi yuqoriligi | - soliq va budjet siyosatining nomukammalligi<br>- sud-huquq tizimi samarasizligi<br>- nazorat va monitoring tizimlari samaradorligining yetarli emasligi | F. Ubaydov |

Izoh: Jadvalda keltirilgan omillar tegishli mualliflarning ilmiy tadqiqotlari asosida umumlashtirilgan bo'lib, ular muayyan mamlakatning hozirgi holatiga berilgan bevosita siyosiy bahoni anglatmaydi.

Yaqin xorijiy mamlakatlar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar yashirin iqtisodiyotning vujudga kelishi va kengayishi fundamental, institutsional va ma'muriy omillarning o'zaro bog'liq ta'siri oqibati ekanligini ko'rsatadi (4-jadvalga qarang).

Xususan, Rossiya, Ukraina, Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikistonda ushbu jarayonni vujudga keltiruvchi omillar mazmun jihatidan o'xshash bo'lib, asosan, past daromad, ishsizlik, iqtisodiy beqarorlik, soliq yukining yuqoriligi va notekis taqsimoti bilan izohlangan.

4 Шапенова К. Теневая экономика и её развитие в Казахстане. Mongolian Journal of Agricultural Sciences, 10(1), 2014. ст. 206–210.
Байзаков Д. Б. Теневая экономика и её влияние на поступление доходов в государственный бюджет (автореферат докторская диссертация). Астана-2018. ст. 48.
Бурливаева А. Теневая экономика: причины, факторы и приоритеты в ограничении. Саясат, 5, 2006. ст. 115-123.
Карагусова Г. Некоторые аспекты теневой экономики в странах транзитного периода. Саясат, 8-9, 2000. ст. 14-28.
Савин В. Е., Гапурбаева, Ш. Р. Масштабы теневой экономики и определение размеров теневой занятости населения в Кыргызской Республике. Российское предпринимательство / Russian Journal of Entrepreneurship, 18(24), 2017. ст. 4352-4366.
Чолбаева, С. Д. & Бозиева З. А. Теневая экономика и ее влияние на экономическую безопасность Кыргызской Республики. Economy and Business: Theory and Practice, 9(127), 2025. ст. 186–190.
Садыралиев Ж., Уметов С. С. Теневая и неформальная экономика в Кыргызстане. Journal of Economy and Business, 3(2), 2019. 93-99.
Убайдов, Ф. С. Теневая экономика как угроза экономической безопасности и инструменты её нейтрализации в условиях переходной экономики. Автореферат диссертации кандидата экономических наук. Душанбе - 2012. ст. 26.

Yashirin iqtisodiy faoliyatning ko'lami mamlakatdagi soliq tizimining tuzilishi, soliq ma'murchiligi samaradorligi va institutsional muhit bilan bog'liq. Ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarda soliq ma'murchiligi va institutsional mexanizmlarning yetarli darajada takomillashmaganligi norasmiy iqtisodiy faoliyatning kengayishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli yashirin iqtisodiyotni qisqartirishda soliq siyosatini mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy sharoiti va institutsional imkoniyatlarini hisobga olgan holda takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari yashirin iqtisodiyotning shakllanishi iqtisodiy, institutsional, huquqiy, ma'muriy va ijtimoiy omillarning o'zaro ta'siri bilan bog'liqligini ko'rsatdi. Tahlillarga ko'ra, soliq yuki, davlat institutlari faoliyatining sifati, soliq madaniyati hamda iqtisodiyotni tartibga solish mexanizmlari ushbu jarayonga ta'sir etuvchi muhim omillar hisoblanadi. Ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarda soliq tizimining murakkabligi, ma'muriy tartib-taomillar, korrupsiya bilan bog'liq xavflar, shuningdek, davlat xizmatlarining sifati va ulardan foydalanish imkoniyatlarining yetarli darajada emasligi iqtisodiy subyektlarning norasmiy sektorda faoliyat yuritish ehtimolini oshirishi mumkin.

Shundan kelib chiqib, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish maqsadida quyidagi yo'nalishlarda islohotlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

– soliq yuki va soliq ma'murchiligini iqtisodiy subyektlar uchun sodda, shaffof va rag'batlantiruvchi mexanizmlar asosida takomillashtirish;

– davlat institutlari samaradorligini oshirish, korrupsiyaga qarshi kurashish va qonun ustuvorligini ta'minlash;

– tadbirkorlikni rasmiylashtirish jarayonlarini soddalashtirish hamda ma'muriy to'siqlarni qisqartirish;

– aholining soliq madaniyati va davlat institutlariga bo'lgan ishonchini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish.

Ushbu choralar iqtisodiy subyektlarning rasmiy sektorda faoliyat yuritishga bo'lgan rag'batini oshirish, soliq bazasini kengaytirish va mamlakatning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlashga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Tanzi, V. (Ed.). (1982). The Underground Economy in the United States and Abroad. Lexington, MA: Lexington Books.

2. Kaufmann, D., & Kaliberda, A. (1996). Integrating the Unofficial Economy into the Dynamics of Post-Socialist Economies: A Framework of Analysis and Evidence. Policy Research Working Paper No. 1691. Washington, DC: World Bank.

3. Cowell, F. A. (1992). Tax evasion and inequity. Journal of Economic Psychology, 13(4), 521–543.

4. Culiberg, B., & Bajde, D. (2014). Do you need a receipt? Exploring consumer participation in consumption tax evasion as an ethical dilemma. Journal of Business Ethics, 124(2), 271–282. https://doi.org/10.1007/s10551-013-1870-4

5. Round, J., Williams, C. C., & Rodgers, P. (2008). Everyday tactics and spaces of power: The role of informal economies in post-Soviet Ukraine. Social & Cultural Geography, 9(2), 171–185. https://doi.org/10.1080/14649360701856110

6. Acosta-González, E., Fernández-Rodríguez, F., & Sosvilla-Rivero, S. (2014). An empirical examination of the determinants of the shadow economy. Applied Economics Letters, 21(5), 304–307. https://doi.org/10.1080/13504851.2013.856993

7. Berdiev, A. N., & Saunoris, J. W. (2016). Financial development and the shadow economy: A panel VAR analysis. Economic Modelling, 57, 197–207. https://doi.org/10.1016/j.econmod.2016.03.028

8. Feld, L. P., & Schneider, F. (2010). Survey on the shadow economy and undeclared earnings in OECD countries. German Economic Review, 11(2), 109–149. https://doi.org/10.1111/j.1468-0475.2009.00466.x

9. Perry, G. E., Maloney, W. F., Arias, O. S., Fajnzylber, P., Mason, A. D., & Saavedra-Chanduvi, J. (2007). Informality: Exit and Exclusion. Washington, DC: World Bank.

10. Hirschman, A. O. (1970). Exit, Voice, and Loyalty: Responses to Decline in Firms, Organizations, and States. Cambridge, MA: Harvard University Press.

11. Abulqosimov, H. P. (2020). Yashirin iqtisodiyotning mohiyati, sabablari va oqibatlari, unga qarshi kurash yo'llari. Iqtisod va moliya / Ekonomika i finansy, 2(134), 3–10.

12. Rasulov, T. S., & Egamberdiyev, Sh. S. (2020). Yashirin iqtisodiyot: kelib chiqish sabablari, shakllari va o'lchash usullari. XXI asr: fan va ta'lim masalalari, 3, 1–11.

13. Schneider, F., & Williams, C. C. (2013). The Shadow Economy. London: Institute of Economic Affairs.

14. Данько, П. Н. (2007). Теневая экономика в предпринимательских структурах: автореф. дис. на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Санкт-Петербург: Санкт-Петербургская академия управления и экономики. 30 с.

15. Манаенков, А. М. (2004). Институциональные основы обеспечения экономической безопасности и противодействия теневой экономике: автореф. дис. на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва: Московский государственный социальный университет. 24 с.

16. Перов, Е. В. (2016). Теневая экономика как признак конфликтогенности экономической системы общества. Вестник ВГУ. Серия: Экономика и управление, 3, 10–17.

17. Дергачев, Н. В. (2018). Основные причины возникновения теневой экономики в России. Управленческое консультирование, 2, 10–14.

18. Завалишена, Е. А. (2018). Теневая экономика: причины возникновения, основные угрозы и проявления, меры противодействия. Управленческое консультирование, 2, 149–154.

19. Харламова, Е. В. (2018). Теневая экономика в России: причины и формы её проявления. Теневая экономика, 2(1), 17–21. https://doi.org/10.18334/tek.1.4.37633

20. Воробьев, Е. (2008). Теневая экономика в условиях системного кризиса. Экономика Украины, 8, 7–14.

21. Коваленко, В. В., & Шелудько, С. А. (2022). Теневая экономика и ее влияние на экономический рост в Украине. Иқтисод ва молия / Экономика и финансы, 1(149), 2–11.

22. Джабиев, Р. М. (2012). Теневая экономика и коррупция в Азербайджане. Мировая экономика и международные отношения, 7, 84–91.

23. Гезалов, А. А. (2024). Теневая экономика в Азербайджанской Республике: понятие и современное состояние данного феномена. Государственная служба и кадры, 1, 56–59.

24. Шапенова, К. К. (2014). Теневая экономика и ее развитие в Казахстане. Mongolian Journal of Agricultural Sciences, 10(1), 206–210.

25. Байзаков, Д. Б. (2018). Теневая экономика и ее влияние на поступление доходов в государственный бюджет: автореф. докторской диссертации. Астана. 48 с.

26. Бурлибаева, А. (2006). Теневая экономика: причины, факторы и приоритеты в ограничении. Саясат, 5, 115–123.

27. Карагусова, Г. (2000). Некоторые аспекты теневой экономики в странах транзитного периода. Саясат, 8–9, 14–28.

28. Савин, В. Е., & Гапурбаева, Ш. Р. (2017). Масштабы теневой экономики и определение размеров теневой занятости населения в Кыргызской Республике. Российское предпринимательство, 18(24), 4352–4366.

29. Чолбаева, С. Д., & Бозиева, З. А. (2025). Теневая экономика и ее влияние на экономическую безопасность Кыргызской Республики. Экономика и бизнес: теория и практика, 9(127), 186–190.

30. Садыралиев, Ж., & Уметов, С. С. (2019). Теневая и неформальная экономика в Кыргызстане. Экономика и бизнес: теория и практика, 3-2, 93–99.

31. Убайдов, Ф. С. (2012). Теневая экономика как угроза экономической безопасности и инструменты ее нейтрализации в условиях переходной экономики: автореф. дис. на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Душанбе. 26 с.

32. Mirzakarimova, M. M., & Olimjonova, Sh. O. (2014). Norasmiy bandlik va uni legallashtirish masalalari. Iqtisod va moliya / Ekonomika i finansy, 12, 50–60.

# RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA SUN'IY INTELLEKT

## Ilmiy elektron jurnal

## (MAXSUS SON)

**Bosh muharriri:** Mo‘minov Baxodir Boltaevich

**Bosh muharrir o‘rinbosari:** Nasimov Rashid

**Muharrir:** Ulug‘ova Baxtiniso Norpulatovna

**Musahhih:** Ulug‘ova Baxtiniso Norpulatovna

**Dizayner:** Egamberdiev Elyor

“Raqamli transformatsiya va sun'iy intellekt” jurnali 23.10.2020-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №1124 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027


DATA